



## USMON AZIM HIKOYALARIDA BADIY TASVIR VOSITALARI VA KO'CHIMLAR TAHLILI

*Javliyev Poyonbek Shavkat o'g'li*

*Termiz davlat muhandislik va  
agrotexnologiyalar universiteti*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Usmon Azimning ayrim hikoyalari tahlilga tortilib, hikoyada badiiy tasvir vositalari o'zni hamda adabiy asarlarni badiylashtirishda muallif foydalanadigan usul va vositalar ochib berishga e'tibor qaratilgan.

### **Kalit so'zlar**

Uslub, hikoyada badiiy ko'chimlar, adabiy asarlarni badiylashtirish, yozuvchining tasviriy tuyg'ulari, stilizatsiya.

Ko'chimlar va badiiy tasvir vositalari adabiyot va san'atda obrazlilik yaratish, asar mazmunini ta'sirchanroq va qiziqarli qilish, shuningdek, muallif fikrini bilvosita ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Usmon Azim hikoyalarida bu vositalar keng qo'llanib, asarda obrazlilik, tuyg'ularning teranligi va uslubiy yuksaklikni ta'minlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, XX asr so'nggi choragidan boshlab badiiy so'z san'atining shiddat bilan o'zgarish va yangilanish jarayoni ancha faollashdi. Eskirgan nazariy qolip va tushunchalarning yemirilishi natijasida ijodkorlar oldida yangicha ijod tamoyillari, yangi-yangi shakllarni kashf etish muammosi paydo bo'ldi. Adib hikoyalarida yangilik sifatida o'ziga xos tasvir usulini yaratdi. Bu esa Ijodkorning ona tilimiz imkoniyatlaridan keng foydalanishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Stilizatsiya–“Biror uslubga solib, keltirish yoki monand, o'xshatib asar yaratishdir”(1) uslubidagi badiiy jihatdan pishiq va go'zal asarlar yaratib, uni kitobxon ommasiga taqdim etish, katta mashaqqat, ijodiy kuch talab qiladi. Ijodkorning “Jodu” nasriy to'plamidan joy olgan “Siz bilmaydigan zamonlarda”, “G'oz” kabi hikoyalari shu uslubda yaratilgan nodir asarlar sirasiga kiradi. Adibning hikoyalari badiiy tili xalq tiliga juda yaqinligi bilan ajralib turadi:

*“Alpomish chohga tushganini bilasiz. Chohga yarador g'oz qulaganini ham bilasiz. G'ozni otolmagan shakaman mergan oru nomusdan yurak bag'ri ezilib yiqilganini ham bilasiz. Alpomish g'ozni davolab, qanotiga xat boylab, yurtiga elchi qilib uchirganidan*





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

*ham xabaringiz bor. G‘oz yana mergan kulbasi ustidagi tog‘ning boshiga qo‘nib, qang‘illaganidan ham, kasal yotgan ovchi qo‘liga yoy olganidan ham, shu g‘oz o‘lsa Alpomish xor, Qo‘ng‘irot eli zor bo‘lishini xudo ko‘ngliga solgan merganning enasi «hay-hay»lab qushni uchirib yuborganini ham eshitgansiz. Alpomish yurtiga qaytib, Barchin yoriga tasallilar aytib, Yodgor o‘g‘lini bag‘riga bosib, Qo‘ng‘irotning ko‘nglini yozib o‘tganini ham qulog‘ingiz ilib qolgan.”(2)*


“G‘oz hikoyasidan keltirilgan mazkur parchada adibning ishlatgan so‘zlarga e‘tibor qaratsak, bular shevaga xos so‘zlardir: *kulba, enasi, qang‘illaganidan, mergan, o‘takasi yorilib;*

Adib qo‘llagan fraziologik birliklar ham o‘ziga xos: *yurak bag‘ri ezilib, xudo ko‘ngliga solgan, bag‘riga bosib, ko‘nglini yozib, qulog‘ingiz ilib qolgan*

Hikoyani o‘qimishli qilishini oshirgan muhim jihatlardan biri ham asar tilining xalqona ibora-yu qochirimlar bilan ziynatlanganligidir. Hikoyada eng ko‘p ana shunday ibora va qochirimlar qo‘llanilgan. Merganning kasal yotgandagi holati ko‘rsatilgan o‘rinlarda uning aniq tasvirlab berishdagi iboralar ham nihoyatda xalqchildir: “*Mergan kun sayin kuchdan ketib, qoq suyak bo‘lib qolyapti, so‘nggi kuni armonda – Azroilning sharpasini sezib boryapti... Or-nomus uchun o‘ladigan zamonlar ham bo‘lgan-da, birodarlar!*”(3) Hikoya xuddi xalq dostonlari kabi jonli suhbat-muloqot tarzida bitilgan. “Siz bilmaydigan zamonlarda” hikoyasidan olingan boshlanmaga e‘tibor qaratamiz:

*“Kunduzi boshingizda pulning hisob-kitobi,  
Kechqurun ko‘zingiz oynayi jahonda –  
Bizning zamonlar esingizdan chiqib ketgan.  
Men Elomon baxshi nur to‘la lahadimdan chiqib,  
Xunobar o‘z g‘oringizga qo‘shilib yurarkanman,  
Shuncha o‘tgan dono dunyodan  
Bularni olib qolgani  
Mana shu aldar ko‘sa qutiya  
necha-necha pastkash ajdarholar  
sassiq bag‘rini bosgan  
pul ekanda deb, o‘pkam to‘ladi”(4).*

Hikoya ilk jumalardan oq tanbeh, istehzo ohangi bilan boshlanib, lahad, xunoba ro‘zg‘or, aldarko‘sa quti, pastkash ajdarholar, sassiq kabi umum iste‘moldagi so‘zlarning zamirida yotgan achchiq istehzo va kinoyaga boy ohang uyg‘unlashib ketadi. Hikoyaning





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

boshlanishidayoq Usmon Azimning mavjud milliy o‘zbek leksikasiga murojaat qilgani ko‘zga tashlanadi. Iste’molga kirib bo‘lgan va odatiy holga aylanib borayotgan «yangi so‘z»(telivizor)lar qo‘llashdan qochadi va bu so‘z o‘rnida «oynayijahon» va «aldarko‘sa quti» kabi milliy leksikadan foydalanadi. Birinchi marta ushbu so‘zning o‘zbekcha varianti (oynayi jahon)ni qo‘llasa, ikkinchi martada esa «aldarko‘sa quti» deya metafora yaratadi. Shuningdek, «pastkash ajdarholar» deya so‘z qo‘llashida ham majozning allegorik («Mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko‘chim turi») turiga guvoh bo‘lamiz. Hikoyadagi ilk ovoz ya’ni kinoya va istehzo ohangi mana shu kabi badiiy ko‘chimlar zamiriga singdirib yuborilgan.

Hikoyada, odatda, xalq og‘zaki ijodining epik janrlariga xos bo‘lgan paralellizmning uchrashi, asarning ritmik quvvatini oshirib, folklorizmga xos bo‘lgan badiiy tasvir vositalari va badiiy tilni qaytadan jonlantirgan. Shuningdek, adibning dastlabki hikoyalari faqat dostonlargagina xos bo‘lgan badiiy ifoda va obrazli tasvirlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Badiiy adabiyot namunalari tilida uslub talabiga ko‘ra muayyan tarixiy davr koloritini tasvirlash maqsadida turli xil qadimiy leksik va sintaktik birliklar o‘z ifodasini topadi. Zamonaviy tilimiz uchun eskirgan, hozirgi kundalik nutqiy jarayonlarda ishlatilmaydigan bunday birliklar deyarli barcha turdagi asarlar matnida keng ko‘lamni tashkil qiladi. Tarixiy so‘zlar ilmiy adabiyotlarda istorizm atamasi bilan yuritilib, “o‘tmishga oid voqea-hodisalarni ifodalaydigan”(5). Leksik birliklar nazarda tutiladi. Arxaizm yunon tilidagi “archaios – qadimgi” so‘zidan olingan bo‘lib, ma’lum davr uchun eskirgan, iste’moldan chiqqa boshlagan til birliklari (so‘z, ibora va boshqalar) tushuniladi.(6).

Usmon Azim asarlari tilida uchraydigan tarixiy so‘zlar va arxaizmlar tematikasi rang-barang bo‘lib, xalqimiz turmushining turli sohalariga aloqador birliklar bo‘lib chiqadi. Quyida shunday birliklardan ayrimlari borasida to‘xtalamiz.

**Qabo** – xotin-qizlar kiyadigan yengil chopon. Ushbu birlik arabiy tillarga aloqador deb hisoblanadi. Izohli lug‘atda “uzun va keng ustki kiyim”(7) deb izohlangan. Ushbu kiyinish madaniyatiga aloqador istorizm Usmon Azim asarlari leksikasida turli sabablarga ko‘ra qo‘llanilgan. Birinchidan, voqealar tasvirida badiiylikni ta’minlashga, ikkinchidan esa, tinglovchilarga kuchli hissiy ta’sir o‘tkazish uchun zarur deb hisoblangan:

Uning keng oq ko‘ylak ustidan tortib kiygan aqiqday qip-qizil qabosi shamolda hilpirab, qonli sharsharaday orqasida to‘lg‘onar, qora sochlari esa qon isini sezgan





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

quzgʻunday boshiga mahkam yopishib, bezovtalikdan mavjlanar – Ragina bu vahshatning qutqusidan qochib, Artibning panohi tomon jon-jahdi bilan talpinayotganday edi.(8)

Jarchi – tarixiy soʻzi “odamlar koʻp toʻplanadigan joylarda baland ovoz bilan rasmiy eʼlonlar eshittirib yuruvchi kishi”(9) maʼnosini anglatadi:

Jazoni ovoza eta fuqarolarni haqdan yetgan jazoning guvohligiga chorlovchi jarchining chaqirigʻi bozor tarafdin eshitalavermagach, asta-asta paydo boʻlgan uzun-qisqa sukunatlar birlashib, suhbatni zabt etdi.(10)

Eshik ogʻasi – Oʻrta Osiyo xonliklarida xon saroyidagi bosh xizmatkor; oliy hukmdorning turli qabul marosimlarini oʻtkazish ishlariga mutasaddi boʻlgan shaxs(10). **Amir Jondorning qaytganini eshikogʻasi eʼlon etganda, sukunatdan zoʻriqqan majlis erkin nafas oldi.**(11)

Aqcha – tarixiy soʻzi Usmon Azim asarlarida aynan bugungi kunda ishlatiluvchi “pul” soʻzining sinonimi sifatida ishlatilgan.(12)

**- Usta boshidan qancha aqcha olding!?** (13)

Ulus – ushbu birlik moʻgʻul tillarga aloqador deb hisoblanib, izohli lugʻatda “davlat; el, xalq” deb izohlangan.(14)

- Usta Saroyi ulusidan, sohibqiron.(15)


Mashvarat – kengash, koʻrsatma; yoʻl-yoʻriq.(16) Usmon Azim asarlari tilida qoʻllanilgan mazkur arxaiklashgan leksema, arabiy tillarga aloqador birlik sifatida tilga olinadi. Mazkur lisoniy birlik forsiy va turkiy tillar taraqqiyotining muayyan davrlarida oʻzlashgan hamda ancha faol qoʻllanilgan. Y.A.Rubinchik tahriri ostida nashr qilingan lugʻatda ham mazkur nafaol leksema Usmon Azim asarlari tilida qoʻllanilgan maʼnolar doirasida “sovet, konsultatsiya, sovetçanie” deya sharhlanadi.(17)

“Sohibqiron va usta” hikoyasidan olingan quyidagi parchada kuzatamiz:

*Bomdod namozini oʻqib, ertalabki nonushtadan soʻng odatiy mashvaratga yigʻilgan beklar bugun sohibqiron saltanat shaʼniga yarashmaydigan beparda gʻiybatlarning paymonasiga yetishga ahd qilganligini eshitdilar.*(18)

Usmon Azim ona tili imkoniyatlaridan foydalanish, va baʼzan uni kengaytirishda yangichalikka intiladi. Injular tizmasidek jilolangan ona tili lugʻat boyligini botiniy koʻz bilan koʻra olgan shoir, nosir, dramaturg har bir soʻzni chertib-chertib tanlaydi, tafakkur “tarozusi”da oʻlchab qoʻllaydi.

Umuman olganda, Usmon Azim ijodida tilimizdagi soʻzlardan badiiy foydalanish bir necha koʻrinishlarga ega. Demak, adibning nasriy asarlari tilini oʻrganishga har





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

birida ijodkorning betakror poetik idroki, badiiy mahoratining ochib berilishiga xizmat qiladi. Bu esa serqirra ijodkor fenomenini talqin qilish va tegishli xulosalar berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmon Azim. Jodu. —Toshkent: Sharq, 2003.
2. Quronov D., Mamajonov Z.,Sheralieva M. Adabiètshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. Sarimsoqov B. O‘zbek adabiyotida saj. – Toshkent:Fan. – 1978.
4. Adabiy tur va janrlar. 3 jildlik. 1 jild. Epos. – Toshkent: Fan, 1991.
5. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild (Adabiy asar). – Toshkent: Fan, 1978.
6. Ahmedov H. Nasriy she‘r – adabiy hodisa. /So‘z hayrati va saboqlari./ Risola. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo. – 2020.
7. [www.vikipediya.uz](http://www.vikipediya.uz)

